




FAR'ONA VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-mart oylari
uchun dastlabki
ma'lumot)*

Viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021-yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **321,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **42,2** mln. AQSh dollariga yoki **15,1** %ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)


	2020 -yil	2021- yil	O'sish sur'ati, %da	Jamiga nisbatan, %da
 Tashqi savdo aylanmasi	279,7	321,9	115,1 %	x
Eksport 	105,6	124,7	118,1 %	100,0
 tovarlar	103,6	122,7	118,5	98,4
 xizmatlar	2,0	2,0	101,1	1,6
Import 	174,1	197,3	113,3 %	100,0
 tovarlar	173,5	195,2	112,5	98,9
 xizmatlar	0,6	2,1	347,7	1,1
 Saldo	-68,5	-72,6	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **124,7** mln. AQSh dollariga (**18,1** %ga ko'paydi) va import hajmi 197,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati **113,3** %ga teng bo'ldi) yetdi. Hisobot davrida – 72,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qaynatildi.

FARG'ONA VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



20 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-mart)



Farg'ona, jahonning 72ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (29,1 %), Rossiya Federatsiyasida (17,0 %), Qozog'istonda (13,9 %), Qirg'iz Respublikasi (6,4 %), Turkiya (6,0 %) va Turkmanistonda (4,2 %) qayd etilgan.



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar- mart, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Xitoy Xalq Respublikasi	72,8	64,7	93,8
	<i>Eksport</i>	23,3	13,8	28,1
	<i>Import</i>	49,5	50,9	65,7
	Rossiya Federatsiyasi	51,9	53,6	54,8
	<i>Eksport</i>	22,2	20,0	26,4
	<i>Import</i>	29,7	33,6	28,4
	Qozog'iston	40,9	58,2	44,9
	<i>Eksport</i>	3,8	6,0	4,9
	<i>Import</i>	37,1	52,2	40,0
	Qirg'iz Respublikasi	10,6	32,6	20,6
	<i>Eksport</i>	3,8	25,4	10,5
	<i>Import</i>	6,8	7,2	10,1
	Turkiya	19,4	22,3	19,5
	<i>Eksport</i>	12,0	13,4	11,7
	<i>Import</i>	7,4	8,8	7,8
	Turkmaniston	0,5	2,5	13,5
	<i>Eksport</i>	0,01	0,07	0,2
	<i>Import</i>	0,5	2,4	13,3
	Polsha	7,7	4,6	8,5
	<i>Eksport</i>	5,8	4,5	7,6
	<i>Import</i>	1,9	0,1	0,9
	Tojikiston	4,3	4,8	7,5
	<i>Eksport</i>	0,4	2,2	3,8
	<i>Import</i>	3,8	2,6	3,7
	Koreya Respublikasi	9,5	7,1	7,3
	<i>Eksport</i>	3,0	2,5	2,1
	<i>Import</i>	6,5	4,6	5,2
	Pokiston	0,5	0,09	6,1
	<i>Eksport</i>	0,4	0,09	5,9
	<i>Import</i>	0,1	-	0,2



FARG'ONA VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020-y.	2021- y.
	Afg'oniston	2,5	3,7	4,1
	<i>Eksport</i>	2,5	3,7	4,1
	<i>Import</i>	-	-	-
	Germaniya	10,9	1,9	3,8
	<i>Eksport</i>	0,5	0,3	0,4
	<i>Import</i>	10,4	1,5	3,4
	Misr	-	4,1	3,5
	<i>Eksport</i>	-	4,1	3,5
	<i>Import</i>	-	-	-
	Italiya	1,5	2,0	3,2
	<i>Eksport</i>	0,2	0,04	0,4
	<i>Import</i>	1,3	1,9	2,8
	Vyetnam	0,2	0,8	2,4
	<i>Eksport</i>	0,2	0,8	2,1
	<i>Import</i>	-	-	0,3
	Ekvador	0,4	0,9	2,4
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,4	0,9	2,4
	Ukraina	2,6	2,3	1,9
	<i>Eksport</i>	1,1	1,5	0,7
	<i>Import</i>	1,5	0,8	1,2
	Braziliya	-	-	1,8
	<i>Eksport</i>	-	-	1,8
	<i>Import</i>	-	-	-
	litva	3,6	1,0	1,8
	<i>Eksport</i>	0,5	-	0,3
	<i>Import</i>	3,1	1,0	1,5
	Bangladesh	6,7	0,8	1,7
	<i>Eksport</i>	6,7	0,8	1,7
	<i>Import</i>	-	-	-



FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart 2021- yil)



Shaharlat va tumanlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona sh.	65,4	41,3	63,3
Qo'qon	50,8	84,2	165,8
Quvasoy	7,7	10,4	136,4
Marg'ilon	15,1	19,0	125,9
Oltiariq t.	12,9	8,2	63,3
Qo'shtepa	3,9	14,3	362,9
Bag'dod	2,6	3,2	125,7
Buvayda	4,2	3,5	81,6
Beshariq	5,2	7,2	137,7
Quva	6,8	7,9	117,1
Uchko'prik	29,2	38,3	131,1
Rishton	3,3	3,0	92,0
So'x	1,1	0,8	70,1
Toshloq	30,1	33,9	112,9
O'zbekiston	7,2	3,7	50,4
Farg'ona	14,8	11,3	76,3
Dang'ara	10,7	11,4	106,9
Furqat	3,1	3,1	101,0
Yozyovon	5,5	16,7	303,2

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Qo'qon shahri **26,1 %** ulush bilan 84,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni So'x tumani **0,2 %** ulush bilan **0,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.




Farg'ona viloyatining tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2021-yilning yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **45,3** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020-yilga nisbatan **6,4** %ga kamaygan.

FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLUKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-mart oylarida 2020- yilga nisbatan **42,1** %ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **54,7** %ni tashkil etdi.



FARG'ONA VILOYATINING MDH MAMLUKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



Farg'ona viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (17,0 %), Qozog'iston (13,9 %), Qirg'iz Respublikasi (6,4 %), Turkmaniston (4,2 %) va Tojikiston (2,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.



FARG'ONA VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-mart)



Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyorlari soni **513** tani tashkil etib, ular tomonidan **124,7** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan **18,1** %ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021-yil yanvar-mart, ulushi, %da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **85,2** %ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**70,2** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**9,1** %) va nooziq-ovqatlar xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**5,4** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



FARG'ONA VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	105,6	124,7	96,8	118,1	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,2	11,3	74,3	58,7	18,2	9,1
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	315,7	107,5	0,1	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18,5	6,7	327,0	36,3	17,5	5,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,6	1,0	53,7	64,5	1,5	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,8	2,8	399,6	100,6	2,6	2,2
Sanoat tovarlari	55,5	88,1	80,6	158,8	52,5	70,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,3	0,5	229,2	212,0	0,2	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	5,7	12,1	195,3	213,1	5,4	9,7
Xizmatlar	2,0	2,0	99,6	101,1	1,9	1,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	6,6	40,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3,8	144,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)		
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	445,2
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,07	104,3
Tamaki va tamaki mahsulotlari		
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3,7	115,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1,3	9,4
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	0,7	198,5
Qog'oz massasi va makulatura	0,8	61,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz		
Elektr toki		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,0	64,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)		
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa toifaga kiritilmagan kimyoviy mahsulotlar	0,2	100
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,1	217,2
O'g'itlar	2,2	88,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,03	100



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, %da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	81,2	157,4
Boshqa toifaga kiritilmagan metallardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	80,1
Qog'oz va karton	0,2	216,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2,6	295,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	0,4	309,7
Aniq sohalarda uchun mashina va uskunalar	0,08	26, m
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,05	49,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8,7	248,4
Har xil tayyor buyumlar	1,6	170,4
Poyabzal	1,4	122,3



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-martiga **53,1%**dan 2021- yilning yanvar-martida **38,6** %ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **61,4** %ni tashkil etdi.



Xitoy Xalq Respublikasi



22,5 %

Rossiya Federatsiyasi



21,2 %

Turkiya



9,4 %

Qirg'iziston



8,4 %



Polsha

6,1 %



Pokiston

4,7 %



Qozog'iston

3,5 %



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020- yil yanvar-dekabr, %da)

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining **22,5** %i), Rossiya Federatsiyasi (**21,2** %), Turkiya (**9,4** %), Qirg'iz Respublikasi (**8,4** %), Polsha (**6,1** %), Pokiston (**4,7** %) va Qozog'iston (**6,0** %), davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **75,8** foizni tashkil etmoqda.



**FARG'ONA VILOYATI ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** (yanvar-mart, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	13,9	28,1	59,5	202,8	3	1
Rossiya Federatsiyasi	20,0	26,4	89,9	132,2	2	2
Turkiya	13,4	11,7	112,1	86,8	4	3
Qirg'iz Respublikasi	25,4	10,5	663,9	41,1	1	4
Polsha	4,5	7,6	77,1	170,5	6	5
Pokiston	0,1	5,9	28,0	5956,1	15	6
Qozog'iston	6,0	4,9	159,1	81,1	5	7
Afgoniston	3,7	4,1	147,7	110,6	8	8
Tojikiston	2,2	3,8	514,4	169,1	10	9
Misr	4,1	3,5	100	86,3	7	10
Vyetnam	0,8	2,1	487,6	258,4	12	11
Koreya Respublikasi	2,5	2,1	80,7	84,0	9	12
Braziliya	-	1,8	-	100	20	13
Peru	0,4	1,7	100	430,5	16	14
Bangladesh	0,8	1,7	12,7	203,3	13	15
Belarus	0,4	0,9	77,0	237,3	17	16
Latviya	0,1	0,8	111,2	531,4	18	17
Ukraina	1,5	0,7	131,0	46,6	11	18
Eron	0,0	0,6	0	100	19	19
Portugaliya	0,7	0,5	145,	76,5	14	20



FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)



Hududlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona sh.	7,1	6,9	97,3
Qo'qon	24,6	36,1	146,5
Quvasoy	3,8	2,6	69,1
Marg'ilon	3,2	2,4	73,6
Oltiariq t.	8,7	1,7	20,0
Qo'shtepa	1,0	9,7	947,0
Bag'dod	1,5	1,9	130,2
Buvayda	3,1	2,0	65,5
Beshariq	3,1	4,9	159,0
Quva	4,8	4,9	100,9
Uchko'prik	5,4	8,9	166,6
Rishton	2,4	2,5	103,3
So'x	0,8	0,5	56,8
Toshloq	25,6	29,4	115,0
O'zbekiston	1,8	1,4	78,5
Farg'ona	2,4	3,4	141,0
Dang'ara	2,2	2,4	106,3
Furqat	2,4	2,0	83,5
Yozyovon	1,5	0,7	46,3



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Farg'ona meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 7,2 mln. AQSh dollari qiymati teng 13,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020-yilning mos davriga nisbatan **9,3** mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, **56,3** %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **3,1** mln. AQSh dollariga teng **7,8** ming tonna sabzavot, shuningdek, 3,2 mln. AQSh dollari qiymatidagi **4,5** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-mart)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **5,8 %**ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-mart)



Davlatlar	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi, %da *
 Rossiya Federatsiyasi	4,0	2,6	35,4
 Qozog'iston	5,6	2,5	34,8
 Qirg'iz Respublikasi	2,0	0,7	10,4
 Xitoy Xalq Respublikasi	0,4	0,4	5,1
 Afg'oniston	0,4	0,3	4,7
 Pokiston	0,4	0,3	4,5
 Boshqa davlatlar	0,3	0,4	5,2

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **25,3 %**), bu Afg'onistonga eksport hajmidan **5,2** baravar ko'pdir.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **94,4** mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **75,7** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **59,9** %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**76,3** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**9,2** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **116** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **41** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



	2019 yil	2020 yil	2021 yil
 Tovar nomi			
 Paxtadan yigirilgan ip	60,3	45,3	72,0
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	1,5	3,5	8,7
 Gilamlar	0,03	0,0	0,08
 Naqshli mato	0,6	1,5	1,5
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1,1	1,1	0,9
 Paxtadan gazlamalar	4,6	5,0	8,1
 Ipak va ipak mahsulotlari	1,2	1,5	1,7
 Paxta mahsulotlari	0,6	0,8	1,1
 Boshqalar	0,2	0,2	0,3



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)




		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Xitoy Xalq Respublikasi	27,6	13,1	27,1
	Rossiya Federatsiyasi	16,9	13,1	21,7
	Turkiya	7,2	12,6	10,0
	Polsha	3,9	4,5	7,0
	Pokiston	-	-	5,5
	Qirg‘iz Respublikasi	0,4	1,6	3,7
	Misr	2,3	4,1	3,5
	Brazilya	-	-	1,8
	Peru	-	0,4	1,7
	Bangladesh	4,6	0,8	1,7
	Koreya Respublikasi	1,5	2,0	1,5
	Tojikiston	0,8	0,2	1,2
	Eron	0,2		0,6
	Ukraina	0,8	0,9	0,6
	Boshqa davlatlar	4,0	5,8	6,7

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (21,7 mln. AQSh dollari – **23,0** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**27,1** mln. AQSh dollari – **28,7** %) va Turkiya (**10,0** mln. AQSh dollari – **10,6** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart, ulushi, %da)



Xizmatlar eksporti hajmi 2,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,6 %ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 1,1 %ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (84,1 %) va safarlar (turizm) (4,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (1,9 %) hamda boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (1,9%) hissasiga to'g'ri kelgan.



FARG'ONA VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-mart)




2021- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi **197,3** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan 13,3 %ga o'sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**25,5 %**), sanoat tovarlari (**23,5 %**) hamda mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**21,3 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-mart, ulushi, %da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21.6** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **195,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **2,1** mln. AQSh dollariga yetdi.



FARG'ONA VILOYATINING XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		Umumiy hajmga nisbatan. %da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	174,1	197,3	97,8	113,3	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20,8	29,7	137,7	142,7	12,0	15,1
Ichimliklar va tamaki		0,1	100	77,6 p	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,5	4,1	41,7	116,9	2,0	2,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	48,4	42,0	193,8	86,7	27,8	21,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,0	3,5	7,7 p	119,7	1,7	1,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	13,3	12,1	92,5	90,9	7,6	6,1
Sanoat tovarlari	32,9	46,3	66,0	140,7	18,9	23,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	43,3	50,4	74,7	116,5	24,8	25,5
Turli xil tayyor buyumlar	8,4	7,0	145,7	83,2	4,8	3,4
Xizmatlar	0,6	2,1	43,9	347,7	0,3	1,1



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, %da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17,5	131,1
Tirik xayvonlar, 03 bo'limiga kiritilgan xayvonlardan tashqari	2.3	439,6
Xayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	1.0	155,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,8	143,5
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,1	77,6 m
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	1,9	125,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	0,2	72,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1,3	160,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0.1	70,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	38,4	83,5
Ko'mir, koks va briketlar	3,5	148,4
Elektr toki		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,07	100
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	3.5	119,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1,7	45,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,3	159,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1,5	130,8
Bo'yoqlar	1,7	131,3



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, %da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	9,3	74,9
Metaldan tayyorlangan buyumlar	7,5	268,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	10,5	199,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,8	278,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	18,5	81,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12,3	110,3
Elektr apparatlar va asbob uskunalar	6,0	254,9
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	6,2	183,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2,8	267,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,7	25,9
Har xil tayyor buyumlar	1,5	233,1



MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushi 49,5:50,5 nisbatni tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar- mart, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)



2021- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Farg'ona viloyati tomonidan 55 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Qirg'iziston Turkiya va Koreya Respublikasi jami importning **86,6 %** ulushini tashkil qildi, bu **170,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-mart % da)



**FARG'ONA VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARIGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-mart, yillar kesimida)*



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Xitoy Xalq Respublikasi	50,9	65,7	102,8	129,1	2	1
Qozog'iston	52,1	40,0	140,5	76,7	1	2
Rossiya Federatsiyasi	33,6	28,4	113,2	84,6	3	3
Turkmaniston	2,5	13,3	526,2	540,0	8	4
Qirg'iz Respublikasi	7,2	10,1	106,5	140,5	5	5
Turkiya	8,8	7,8	119,5	88,6	4	6
Koreya Respublikasi	4,6	5,3	71,4	113,0	6	7
Tojikiston	2,6	3,7	68,0	142,7	7	8
Germaniya	1,5	3,4	14,7	221,9	10	9
Italiya	2,0	2,8	144,0	145,8	9	10
Ekvador	0,9	2,4	250,8	266,2	12	11
Tayvan	0,0	1,6	0,3	377 p	20	12
Litva	1,0	1,5	31,0	150,7	11	13
Hindiston	0,3	1,3	35,7	410,4	17	14
Ukraina	0,8	1,2	53,6	158,9	13	15
Polsha	0,1	0,9	7,6	625,7	19	16
Shveysariya	0,6	0,9	99,2	151,0	14	17
Niderlandiya	0,1	0,9	9,0	790,1	18	18
Avstriya	0,3	0,9	1243,3	292,4	16	19
Eron	0,5	0,8	66,7	156,4	15	20



FARG'ONA VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(yanvar-mart 2021- yil)



Shaharlar va tumanlar	2020-y. mln. AQSH doll	2021-y. mln. AQSH doll	O'sish sur'ati, da %
Farg'ona sh.	58,3	34,5	59,1
Qo'qon	26,2	48,1	183,9
Quvasoy	3,9	7,8	201,9
Marg'ilon	11,9	16,7	140,0
Oltiariq t.	4,2	6,4	152,9
Qo'shtepa	2,9	4,6	158,1
Bag'dod	1,1	1,3	119,8
Buvayda	1,1	1,4	125,9
Beshariq	2,2	2,3	107,6
Quva	1,9	3,0	158,2
Uchko'prik	23,8	29,3	123,1
Rishton	0,9	0,5	60,6
So'x	0,3	0,3	110,5
Toshloq	4,5	4,5	100,7
O'zbekiston	5,4	2,2	41,0
Farg'ona	12,4	7,9	63,6
Dang'ara	8,4	9,0	107,0
Furqat	0,7	1,1	165,6
Yozyovon	4,1	16,0	395,2




MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021-yil yanvar-mart oylarida import tarkibida mashinalar va transport- asbob uskunalar hajmi **50,1** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,5 %** o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **25,5 %**ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-mart)



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
tel.: (73) 241-97-68

